XALQ DEPUTATLARI SO‘X TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Сўх тумани А.Темур -95, +998 73 462 5054, https://t.me/suxtumanikengashi

2025-yil 17-sentabr VII-13-90-11-159-K/25 So‘x tumani

To‘ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish hamda VI-76-99-11-159-K/23 sonli qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2019 yil 14-sentabrdagi 2736-III/KQ-592-III sonli Qo‘shma qarori ijrosini ta’minlash, tumandagi to‘ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlarni ixcham, tejamkor va milliy an’analarga muvofiq tashkil etish, isrofchilikka yo‘l qo‘ymaslik hamda aholi o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2019 yil 14 sentabrdagi 2736-III/KQ-592-III sonli Qo‘shma qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tumandagi to‘ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlarni tartibga solish yuzasidan Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashi huzuridagi tuman komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Komissiyaning maqsad va vazifalari quyidagicha belgilansin:

-tuman hududida o‘tkaziladigan barcha tadbirlar, to‘ylar va marosimlarga jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

-to‘ylar va marosimlarni isrofchiliksiz, milliy qadriyatlarimizga muvofiq tashkil etish bo‘yicha keng jamoatchilik bilan tushuntirish ishlarini olib borish;

-ijtimoiy ajratish va tafovutlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun oilalar bilan samarali suhbatlar tashkil etish;

-yoshlar va ularning ota-onalari o‘rtasida oilaviy hayotga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha maslahatlar berish;

-ayollarga tadbirlarni tejamkorlik bilan o‘tkazish ahamiyatini hayotiy misollar bilan tushuntirish;

-to‘y va marosimlarni kichik va mazmunli o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.

4.To‘ylar va marosimlarning o‘tkazilish tartibi quyidagicha bo‘lsin:

-to‘ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar faqat bir kun ichida soat 06:00 dan 23:00 gacha o‘tkazilsin;

-soat 23:00 dan keyin davom ettirish qat’iyan taqiqlansin;

-to‘y va tantanalarda ishtirokchilar soni 200 nafardan oshmasin, osh marosimlarida esa 250 nafarga qadar bo‘lsin;

-qo‘shaloq to‘ylarida ishtirokchilar soni 250 nafargacha, ularga tegishli osh marosimlarida 300 nafargacha bo‘lsin;

-nikoh va oilaviy tadbirlarda 3 tadan ko‘p bo‘lmagan yengil avtomobillar yoki boshqa transport vositalari jalb qilinmasin (shaxsiy va homiylar yordamida taqdim etilgan transport bundan mustasno);

dafn va motam marosimlari uch kungacha davom etishi mumkin (osh marosimi bundan mustasno).

5.Tumandagi mavjud mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga:

Hududlardagi to‘y va marosimlarni nazorat qilish;

Har bir tadbirni bir hafta oldin va keyin kuzatib borish va tuman komissiyasini darhol xabardor qilish vazifasi yuklansin.

6.Tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari (M.F.Y.) ettilik xodimlariga;

-to‘ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlarni tashkil etishni shaxsiy mas’uliyat sifatida qabul qilib, o‘zlari bevosita tashkil etishlari shart, zarurat yuzaga kelganda komissiya a’zolariga murojaat qilishlari mumkin, ushbu mas’uliyat har bir ettilik xodimining burchi hisoblanadi.

7.Tuman bosh imom-xatibiga V.Kamolovga:

-to‘ylar va marosimlarda diniy ma’ruzalar faqat vakolatli diniy tashkilot vakillari tomonidan o‘qilsin;

-to‘y va tantanalarda mablag‘larni tejash va kam ta’minlanganlarga yordam berish targ‘iboti olib borilsin;

-yoshlar tarbiyasi, ota-onaning mas’uliyati va jamiyat xavfsizligiga oid mavzularda ma’ruzalar tashkil etilsin.

8.Tuman hokimining maslahatchisi R.Akparov, matbuot kotibi A.Djurayev va Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi (M.Turaboyev)larga:

-qarorni keng targ‘ib qilish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish;

-qaror matni tumandagi barcha mahalla va jamoat joylarida, shuningdek restoran, kafe va to‘yxonalarda e’lon qilinsin.

-milliy qadriyatlarga mos kelmaydigan “ommaviy madaniyat” unsurlarining oldini olish maqsadida targ‘ibot ishlarini muntazam olib borish;

-namunali tadbirlar haqida ijtimoiy videoroliklarga va uslubiy qo‘llanmalarga tayyorlash vazifasi yuklansin.

9.Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashi deputatlariga:

-qaror mazmun-mohiyatini saylov okruglarida keng targ‘ib qilish va ijrosini nazorat qilish topshirilsin.

10. Qaror ijrosi uchun mas’ul shaxslar sifatida tuman hokimining o‘rinbosarlari I.Abdumajidov va M.Safarova hamda Komissiya a’zolari belgilansin.

11.Mazkur Kengash qarorining to‘liq va samarali ijro etilishini shaxsan o‘z zimmada qoldiraman**.**

Kengash raisi SAYIDMUSAYEV SAYIDBAXROM SAYIDBURXONOVICH

Xalq deputatlari So‘x tumani
Kengashining
2025-yil 17-sentabrdagi
VII-13-90-11-159-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Tumanda to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi huzurida to‘ylar, oilaviy tantanalar ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha
TUMAN KOMISSIYASI TARKIBI

T/R	F.I.Sh.	Lavozimi
Tuman muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiya rahbari		
1	Turaboyev Abdushukur Bobododoyevich	Nuroniy jamg‘armasi tuman bo‘limi raisi o‘rinbosari
Tuman muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiya rahbari o‘rinbosari		
2	Abdumajidov Ilhomjon Abdumanofovich	Tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
3	Safarova Madinaxon Haydarovna	Tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
4	Dustov Olimjon Mashrabjonovich	Tuman prokurori o‘rinbosari
5	Bobomansurov Nasrullo Alijonovich	Tuman IIB boshlig‘i o‘rinbosari
Tuman muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiya tarkibi		
6	Temiraliyev Saydali Hokimaliyevich	Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
7	Ergashev Valijon Narziddinovich	Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi
8	Enazarov Bunyodjon Abduvahobovich	Tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i
9	Haydarov Qosimjon Niyozaliyevich	O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi So‘x tumani bo‘limi boshlig‘i
10	Sodirbekov Nimonjon Sodirjonovich	Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiya raisi
11	Axmedov Nurmatjon Ergashboyevich	8-Oftobru saylov okrugi deputati “Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha”doimiy komissiya a’zosi
12	Muhammadxonov Begzod Alhamjonovich	Tuman IIB YHXB boshlig‘i
13	Mastonov Isojon Bahodirovich	Yoshlar Agentligi tuman bo‘limi rahbari
14	Sobirov Jahongir Sobirovich	So‘x-TV muxbiri

15	Boybolayeva Zarnigor Furqatzoda	Tuman FXDYO bo‘limi mudiri
16	Kamolov Vohidxon Habibulloyevich	Tuman bosh imom-xatibi
17	Ergasheva Inobatxon Rahmonaliyevna	So‘x tumani Navobod MFY mehnat faxriyasi
18	Akparov Rahmonali Amiraliyevich	Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash m asalalari bo‘yicha maslahatchisi, ishchi guruh kotibi
19	Turdiev Hamidullo Hakimjonovich	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
20	Juraboev Dilshod Abduhamidzoda	Tuman Sanitariya Epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i
Izoh : Joylardagi mavjud barcha mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi “Mahalla yettiligi” mas’ul hisoblanadi.		